O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

Sana: 02-10-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

260304 - SONLI

Obyekt nomi: Sirdaryo viloyati Yangier shahar A.Jomiy MFYda 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yerto‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy-joyning namunaviy loyihasi (Tip-1)	
Buyurtmachi:	SERVIS MOBILE 775 MCHJ
Bosh loyihachi:	"QISHLOQQURILISHLOYIHA" DAVLAT MUASSASASI
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	090427

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PF-51-sonli farmoni.

1.2. Elektron-onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi 2025-yil 21-avgustdagi YU-1287951-sonli bayonnomasi, LOT-17509241. (Yangi O‘zbekiston)

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 3-sentyabrdagi №1724-1724413-238251-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Buyurtmachi “Servis mobail-775” MCHJ va “Sirdaryo viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi” tomonidan kelishilgan 2025-yildagi loyiha topshirig‘i.

1.5. Buyurtmachi “Servis mobail-775” MCHJ va loyihachi “Qishloqqurilishloyiha” DM o‘rtasida tuzilgan 2025-yil 25-avgustdagi №10-12-2025-sonli shartnomasi.

1.6. “O‘ZGASHKLITI” MCHJ Sirdaryo viloyat filialining 2025-yildagi muxandislik-geologik sharoitlari xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko‘ra “Sirdaryo viloyati Yangier shahar A.Jomiy MFYda 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yerto‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy-joyning namunaviy loyihasi (Tip-1)” obyekti bo‘yicha loyiha hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish obyekti joylashgan maydon tavsifi.

Loyihalanayotgan yangi qurish obyekti “Sirdaryo viloyati Yangier shahar “A.Jomiy” MFY “Yangi O‘zbekiston” massivi “Amir Temur” ko‘chasi hududida 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar uy-joy binosining, yarim yerto‘la qismida joylashgan ofis va maishiy xizmat uy joyning namunaviy loyihasi (tip-1) 31-uy “Yangi O‘zbekiston” massivi hududida joylashgan. Shu bir turdagi (tip) 5-qavatli turar-joy uyi uchun umumiy bosh reja ishlab chiqilgan. Hudud ichida 1-dona bir turdagi (tip) 5-qavatli turar-joy uyi loyihalangan. Umumiy obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtiriladigan hudud umumiy bosh rejada ishlab chiqilgan. Ushbu hududidan yuruvchi avtotransport vositalarining qulayligini yaxshilash maqsadida avtomobil yo‘li, yong‘inga qarshi beton qoplamali yo‘l ajratilgan. Tashqi ishlari loyihalanmagan.

Me’yoriy qor tushish bosimi – So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96)

Me’yoriy shamol tezligi bosimi – Wo=0,38<0,48 KPa (38<48 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Hududning zilzilaviyligi – 7 ball.

Binoning zilzilaviylik bardoshliligi – 8 ball.

Tuproqning muzlash sathi – (-0.33<+0.58)

Tuproqning zilzilaviylik tarkibiy toifasi – II. (ichinchi)

Tuproqning cho‘kuvchanligi toifasi – I. (birinchi)

Tashqi havo harorati hisobi – Tn=-15℃

O‘rtacha yillik harorat – (+13.2℃)

Eng baland harorat – (+37℃<+40℃)

Eng past qishgi sovuq harorat – (-13℃<-28.5℃)

Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi – II. (ikkinchi)

Qurilish maydonining zilzilaviyligi (QMQ 2.01.03-96) - 7 ball.

Binoning javobgarlik sinfi (tuzilishi) – II. (ikkinchi)

Funksional yong‘in xavfi sinfi – F1.3.

3.2. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (5-qavatli turar-joy binosi. AR)

Loyihadagi yangi qurilish binosi obyekti 5-qavatli turar-joy “Sirdaryo viloyati Yangier shahar “A.Jomiy” MFY “Yangi O‘zbekiston” massivi “Amir Temur” ko‘chasi hududida 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar uy-joy binosining namunaviy loyihasi (tip-1) 31-uy, umumiy bosh reja bo‘yicha ishlab chiqilgan hudud ichida joylashgan. Ko‘p qavatli turar-joy uyning loyihalari hudud aholi sharoitlari va funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy rejalashtirish yechimi qilingan, shuningdek iqlim va mahalliy sharoitlar hisobga olingan. 5-qavatli turar-joy binosi (A-V’) o‘q chiziqlari bo‘yicha 14,60 metrni va (1-4) o‘q chiziqlari bo‘yicha 17,10 metr o‘lchamlari bilan to‘rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland tom qismigacha +17,70 metrni tashkil etadi, eng yuqori parapet qismigacha h=+18,20 metrda. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha h=2,87 metrni tashkil etadi. Tomi qiya i=5 va 8,5˚ qilib yopilgan. Sokol qavat polining sathi h=-2,63 metr sathda. Yerto‘la qavatining balandligi poldan shiftgacha h=2,40 metr.

3.3. Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlar. (5-qavatli turar-joy binosi. AR-TEP)

1. Honadonlarni yashash maydoni	- 620,85 m2
2. Honadonlarning umumiy maydoni	- 950,20 m2
3. Umumiy yerto‘la maydoni	- 227,90 m2
4. Binoning yashash maydoni	- 1123,88 m2
5. Qurilishning umumiy hajmi	- 4858,60 m3
6. Qurilish maydoni	- 268,00 m2

3.4. Tashqi pardozlash ishlari. (5-qavatli turar-joy binosi. AR)

Tashqi devorlari – Qalinligi 160mm.li quyma temir beton bilan devorlar to‘ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o‘ralgan).
Tashqi issiqlik himoya qoplamasi – Hajmiy og‘irligi PPJ-ϒ=120÷140kg/m3 GOST 9573-2012 δ=100mm.dan kam bo‘lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.
Tashqi bezak – Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan qoplanadi.
Sokol – Suvoq qilinib, rangli dekorativ italogranit qilinadi.
Krilso – Sun’iy aglomerat plitkalardan qoplanadi.
Otmostka – Bino perimetri beton qoplamasi yotqizilgan eniga 1500mm, beton sinfi B7.5 belgili qalinligi 50mm. shag‘al asos to‘shaladi.
Karniz – Dekorativ Alyubond turidagi panel bilan qoplanadi.
Kozirek – Dahliz soyabonlari Leksan paneli turidagi qoplamadan.
Otkoslar – Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.
Tashqi tokchalar – Po’lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.
3.5. Ichki pardozlash ishlari. (5-qavatli turar-joy binosi. AP)
Ichki devorlar – Qalinligi 150mm. gazoblok bilan devorlar to‘ldirilgan. Shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo‘yaladi.
Yuvinish xonalari – Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan h=1.80 balandlikda qoplanadi.
Pollar – Beton, keramik plitka dag‘al yuzali, marmar va laminat qoplanadi.
Shiftlar – Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo‘yoq bilan yorqin ranglar bilan bo‘yaladi.
Eshiklar – Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi. Alyumin eshiklar sanitar xonalarga o‘rnatiladi.
Derazalar – Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.
Darcha derazalar – (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi
Tokchalar – PVX plastik.
Plintuslar – PVX plastik, marmar, keramik.
3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechim. (5-qavatli turar-joy binosi. NBSH)
Loyihalash ishlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining bajarishda binolarga kirish va chiqish joylarida panduslar yechimi qilingan va erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari qisman bajarilgan. Buyurtmachi “Servis Mobile 775” MCHJning 2025-yil 30-sentyabrdagi №1087-sonli xatida barcha talablar bajarilishi kafolatlangan. Umumiy bosh rejada barcha shu jumladan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun yechimi bo‘yicha talablarni keying tartibda boshqa buyurtmachi tomonidan ishlab chiqiladi. Ularni bajarish keyingi o‘rinda buyurtmachi va loyihachining zimmasiga yuklatiladi. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani o‘qib qabul qilishi bilan unga yuklanadi. (birlamchi hujjatlariga qaralsin).
3.7. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.
Eshiklar – Issiqlik va shovqindan himoya qatlami bilan to‘ldirilgan.
Derazalar – Tashqi derazalar oynapaketli shaffof shishali PVX plastik romli.

Tashqi devorlar – O‘lchamlari 600x1200mm bo‘lgan issiq izolyatsiya bazalt plitalari bilan qoplanadi.

Pol – Tarket va relin pol, ostidan penopleks to‘shaladi.

Quyosh panellari – Binoning zahira elektr energiya istemoli uchun bino tomi ustida quyosh panellari jamlanmasi o‘rnatilgan.

Issiq suv zahirasi uchun quyosh panelli jamlanma o‘rnatilgan.

Ichki yoritgichlar – Yoritgichlari sifatida yorug‘lik diodli LED turidagi yoritgich chiroqlari o‘rnatilgan.

3.8. Yong‘in havfsizligi.

Loyiha bilan 1 ta blokdan iborat 5 qavatli turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan. Yarim yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish uchun 2 ta evakuatsiya yo‘llari va derazalari mavjud. Turar joy binosining yarim yerto‘la hamda 1-5 qavatlarida yashash kvartiralari joylashtiriladi. Tom qismi – yog‘och konstruksiyalari yordamida profnastil yopilgan. Bino tom qismiga chiqish ichki zinapoya orqali. Yashash kvartiralarini isitilishi – maxalliy.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3, balandligi +13,3 m (eng yuqori yashash qavatining ochiladigan oynasi pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Loyiha hujjatlarida binoning tashqi fasad qismi uchun yonmaydigan materiallar, tom qismida tutqichlar, tom yog‘och qismlariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berish, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi hududida 1000 kub.m. sig‘imli suv hovuzi, kvartiralarning yo‘lak va oshxonalarida yong‘in xabarlagichli yong‘in signalizatsiya tizimi habarlagichlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari.

3.9. Konstruktiv yechimi. (KJ)

Binolar 5 qavatli turar joy binosi.

Bino 5 qavatli 20 xonadonli 2-3 xonali turar-joy binosi bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 17,1x14,6 m bo‘lgan kommunal xonadonlar yarim yerto‘lada joylashgan.

Konstruktiv yechim qabul qilindi - "Yakka quyma temirbeton devorlar" 2-b) jadval. QMQ 2.01.03-2019 "SEYSMIK RAYONLARDA QURILISH" -Fundamentlar – V20 sinfli qo‘yma temirbeton plita qalinligi 500 mm;

-Pol osti texnik devorlari – qalinligi 160 mm.li V20 sinfli qo‘yma temir beton;

- Devorni kuchaytirish uchun o‘zaklar - kesimi 50x5 mm bo‘lgan burchakdan yasalgan metall;

-Qattiqlik diafragmasi (Jm) -monolit temirbetondan (beton kl. V20) -160 mm;

-Yopmalar va qoplamalar - monolit temir-betondan kl. V20 qalinligi - 150 mm - Zinapoya - marshlar zavod sharoitida ishlab chiqarilgan. Maydonchalar monolit temir-betondan tayyorlangan. B20;

Devorlar (karkasni to‘ldirish) - zichligi r=600-700 kg/m3 bo‘lgan yacheykali beton bloklardan (Gazoblok) qalinligi. - 150 mm, 200 mm, balandligi bo‘yicha qadami 600 mm bo‘lgan SG-1 to‘rlari bilan armaturalangan;

- Betondan tayyorlangan monolit temir-beton ayvonlar loyihalashtirilgan. V12,5, o‘sha podpollarga tushish;

- Barcha metall konstruksiyalar PF 115 GOST 6465-76* emali bilan GF -020 GOST 18186-79* gruntovkasi bo‘yicha 2 marta bo‘yaladi;

- Qo‘shni bo‘limlarning topshirig‘iga ko‘ra, muhandislik kommunikatsiyalarini o‘tkazish uchun teshiklar qilingan;

- Binoning perimetri bo‘ylab suv o‘tkazuvchi qiyaligi 3% bo‘lgan chaqiq toshli asos bo‘ylab 1,0 m kenglikdagi beton to‘shama ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Isitish va shamollatish tizimi. (OV)

Issiqlik ta’minoti manbai etib -loyiha bo‘yicha modulli qozonxona isitish tarmoqlariga o‘lanish nazarda tutilgan.

Isitish tarmoqlaridan kirituv tuguni orqali isitish tizimlari uchun ishlatiladi.

Loyihada isitish tizimi ikki quvurli, nasosli tizim sifatida qabul qilingan. Isitish tizimi uchun issiq suv parametrlari 95-70°C bo‘lgan suvdir. Alyumin radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo‘lmagan materiallardan yasalgan yenglarda o‘tkaziladi.
Tizimning quvurlari po‘lat va polipropilendan tayyorlangan, PN 20 turi.
Isitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish quvurlari va ularning o‘lanishlarida isitish moslamalarini o‘chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish
va qaytarish quvurlariga o‘rnatilgan.
Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish moslamalarining yuqori nuqtasiga o‘rnatilgan yarim avtomatik havo chiqargichlar orqali ta’minlanadi. Isitish tizimlarining ko‘targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi. Barcha magistral quvurlar va ko‘targichlar izolyatsiya qilingan. Qavatlar, ichki devorlar va bo‘linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan
materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan. Suv sirkulyatsiyasini amalga oshirish maqsadida nasoslar tizimga o‘rnatilgan.
Shamollatish tizimi bo‘yicha.
Binoda shamollatish mexanik va tabiiy uslub bo‘yicha mo‘ljallangan.
Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo‘li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta’minotining sanitariya normasi bo‘yicha hisoblangan.
Tabiiy va mexanik uslub shamollatish binoda ta’minlangan, havo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi.
Havoni chiqarib tashlash qurilish loyihalarida vertikal shamollatish kanallari orqali mo‘ljallangan. Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chiqarish bilan mo‘ljallangan. Montaj va sozlash ishlari KMK 3.05.01-97 koidalari asosida bajarilishi ta’kidlangan.
4.2. Sovuq va issiq suv ta’minoti. (VK)
Bino yerto‘la qismida nasos qurilmalari uchun nasos xonasi ko‘zda tutildi va xonada 2 ta (1-ishchi,1-zaxira) Q=3,72m3/soat H=29,68m N=1,1KVT nasoslar loyihalashtirilgan. Maxsus chuqurchada suv ko‘tarish darajasiga qarab ishlovchi R11*230 V (Q=10m3/ soat H= 4.5m, N= 0.5m kVt) drenaj nasos o‘rnatiladi. Sovuq va issiq suv quvurlari tizimlari PPRS Ø 20.....63mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan.
Loyiha doirasida bino tomiga 8 dona quyosh suv isitgichlari o‘rnatiladi. Ular suv tarmog‘i orqali suv bilan ta’minlanadi, ulardan chiqayotgan issiq suv har bir xonadondagi elektr suv isitgichlari (50l) orqali iste’molchiga yetkaziladi. Quyosh issiq suv kollektorlariga kirish va chiqish quvurlari binoning chodirida yig'ilganda kvartiralarga taqsimlanadi. Binoning chodiridagi barcha quvurlar atrofi keramzit bilan to‘ldirilgan ruxlangan po‘lat quti ichiga o'rnatiladi. Issiq va sovuq suv uchun xar bir xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatiladi.
Ichki oqova suv tarmoqlari: Oqova suv quvurlarini yotqizish d-50mm, d-100mm va d-160mm bo‘lgan polietilen quvurlardan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida quvurlar plastmassa bilan o'raladi.
Loyiha bo‘yicha qavatlar, chodirlar va tomlar orasidagi barcha quvurlar issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplangan.
Sanitariya-texnik vositalari: qo‘l yuvish uskunalari (umival’nik), unitazlar, dush poddon va osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) mayishiy extiyojlar uchun joylashtirilgan.
4.3. Yong‘in signalizatsiyasi.
Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01-04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrolnыy i upravleniya

oxranna pojarnыy "Bolid" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalgaoshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

4.4. Elektr yoritish. (EO)

Tarmoq kuchlanishi 380/220Vt.

Xonadonlar ta’minot liniyalari stoyaklarining hisobiy yuklamalari, shuningdek kirishdagi hisobiy yuklamalar bir vaqtlilik koeffitsiyentini hisobga olgan holda bitta xonadonga to‘g‘ri keladigan solishtirma yuklama va xonadonlar sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ushbu loyiha quyidagilarni elektr energiyasi bilan ta’minlashni nazarda tutadi:

a) kvartiralar;

b) uyni umumiy yoritish;

v) devoriy gaz qozoni (chordoqda o‘rnatilgan);

g) sovuq suv nasoslari.

Kiritish-taqsimlash qurilmasi sifatida UO blokli VRU tipidagi panel qabul qilingan.

Turar joy binosining elektr energiyasini hisobga olish elektron hisoblagich bilan ta’minlanadi.

Umumiy uy iste’molchilarini hisobga olish VRU kirish-taqsimlash qurilmasiga o‘rnatilgan elektron hisoblagich yordamida amalga oshiriladi.

Qavat shchitlari sifatida har bir qavatning xolida o‘rnatilgan elektron hisoblagichli va UZO tipidagi himoyaviy o‘chirish qurilmali ЩЕ3401 shchitlari qabul qilingan.

Kvartira shchitlari sifatida guruhli bir fazali avtomatik uzgichli ЩRN tipidagi shchitlar qabul qilingan. Xonadon shchitlari xonadonlarning kirish yo‘laklariga o‘rnatilgan.

Qavat shchitlariga magistral tarmoq AVVGng kabeli bilan yerto‘ladagi kabel lotoklarida va skobalarda bajariladi.

Zina kataklari, xollar ishchi yoritilishining ta’minlovchi tarmog‘i AVVGng kabeli bilan kabel lotoklarida, kabel-kanallarda bajariladi, devorlar bo‘ylab shtrablarda yashiringan.

SHNQ 2.08.01-05 ga muvofiq kvartiralarning barcha xonalarida klemma kolodkalari, oshxona va dahlizlarda klemma kolodkalari va osma patron, birlashtirilgan sanuzellarda – yoritgichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutiladi.

Umumiy uy iste’molchilari uchun yorug‘lik manbai sifatida yorug‘lik diodli lampalar qabul qilingan. Umumiy uy iste’molchilarining elektr yoritilishini boshqarish mahalliy o‘chirgichlar va FCS turidagi yoritgichlar bilan bir zumda yoqish akustik sensori o‘rnatilgan holda amalga oshiriladi.

Kvartiralarning guruhli tarmoqlari monolit devorlar va orayopmalarning shtroplarida, gipsokarton to‘siqlarda PVX ning gofrlangan quvurlarida yashirilgan VVGng kabeli bilan bajariladi.

Qavat shchitlari poldan 1,2 m balandlikdagi tokchalarga o‘rnatiladi.

Xonadon shchitlari devorda, poldan 1,6 m balandlikda.

Loyihada har bir xonadonga tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Viklyuchatellar poldan 0,8 m balandlikda, shtepsel rozetkalari oshxonalarda poldan 1,0 va 1,6 m balandlikda, qolgan xonalarda poldan 0,4 m balandlikda o‘rnatiladi. Umumiy xonada splittizimni ulash uchun poldan 2,2 m balandlikda shtepsel rozetkasini o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Qo‘ng‘iroq tugmasi poldan 1,8 m balandlikda o‘rnatiladi.

Chordoqqa o‘rnatilgan devoriy gaz qozonining uzluksiz ishlashi uchun qozon kuchlanish stabilizatori orqali ulanadi.

Elektr uskunalarning normal tok o‘tkazmaydigan barcha metall qismlari yerga ulanishi va nolga keltirilishi kerak.

Barcha elektr montaj ishlari PUE va QMQ 3.05.06-97 ga muvofiq bajarilsin.

Elektr energiyasini tejash uchun binoni muqobil energiya bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda. Muqobil energiya quvvati 550 Vt bo‘lgan 8 dona quyosh panellarini bino tomiga o‘rnatish orqali ta’minlanadi.

Eslatma: 5 kVt quvvatli FES uchun invertorni qo‘llang. 8 dona x 0,550 kVt = 4,4 kVt

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 16-fevraldagi 37824-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Sirdaryo viloyati filialining 2025-yil 9-sentabrdagi 01-02/09-2098 -sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. “Hududiy Elektr Tarmoqlari” AJ. “Sirdaryo hududiy filiali”ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2025-yil 29-avgustdagi 2441396819-sonli texnik sharti.

5.4. “Sirdaryo suv ta’minoti” AJ. Yangier shahar bo‘limi tomonidan 2025-yil 28-avgustdagi 260-sonli texnik shartlari.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 256-sonli va 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy roiya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **5 803 214 141** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

0 so'mga kamaytirilib, **5 803 214 141** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **4 775 721 251** so'm

Asbob-uskunalar: **405 719 946** so'm

QQS: **621 772 944** so'm

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi” DM Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

6.3. Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.4. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalariga ko’ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.6. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi respublika markazi" davlat muassasasining Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi ishlab chiquvchi tomonidan taqdim etilgan boshlang‘ich ma’lumotlarning ishonchliligi uchun javob bermaydi.

6.8. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Sirdaryo viloyati Yangier shahar A.Jomiy MFYda 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yerto‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy-joyning namunaviy loyihasi (Tip-1)” obyektining loyiha hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abdullayev Otabek Nasrullayevich, Shukurov Rustam Sunnatovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Djabbarova Lenura Appazovna, Djurayev Sherali Axmatjanovich, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich